

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ZUFAROV ASLIDDIN MIRZABAYEVICH

**HAR XIL TURDAGI ANION STABILIZATORLAR BILAN
STABILLASHGAN CdS KVANT NUQTALARINING SINTEZI VA
ULARNING FOTOKATALITIK XOSSALARINI O'RGANISH**

02.00.04 – Fizik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Zufarov Asliddin Mirzabayevich

Har xil turdagi anion stabilizatorlar bilan stabillashgan CdS kvant nuqtalarining sintezi va ularning fotokatalitik xossalarini o‘rganish 3

Зуфаров Аслиддин Мирзабаевич

Синтез квантовых точек CdS, стабилизированных различными типами анионных стабилизаторов, и изучение их фотокаталитических свойств..... 21

Zufarov Asliddin Mirzabayevich

Synthesis of CdS quantum dots stabilized with various anion stabilizers and study of their photocatalytic properties..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 42

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ZUFAROV ASLIDDIN MIRZABAYEVICH

**HAR XIL TURDAGI ANION STABILIZATORLAR BILAN
STABILLASHGAN CdS KVANT NUQTALARINING SINTEZI VA
ULARNING FOTOKATALITIK XOSSALARINI O'RGANISH**

02.00.04 – Fizik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/K763 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Muxamadiyev Nurali Qurbonaliyevich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Bekchanov Davron Jumazarovich
kimyo fanlari doktori, professor
Xalilov Qadriddin Faxriddinovich
kimyo fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.02.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «29» may soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy, Biokimyo instituti, Kimyo binosi, 220-xona. Tel.: (+99866) 239-11-40; faks: (+99866) 239-11-51; E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (42 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy, Axborot-resurs markazi. Tel.: (+99866) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 19 » may kuni tarqatildi.
(2025-yil « 19 » may dagi 2- raqamli reyestr bayonnomasi).



[Signature]
A.M. Nasimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

[Signature]
J.R. Uzokov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, PhD

[Signature]
O.N. Ro'zimuradov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda so‘nggi yigirma yillikda zamonaviy nanotexnologiyalar va kvant mexanikasining rivojlanishi bilan yarimo‘tkazgichli kvant nuqtalar sinteziga qiziqish ortib bormoqda. Kvant nuqtalar orasida CdS kvant nuqtalari va u asosida olinadigan nanomateriallar alohida ahamiyatli bo‘lib, o‘ziga xos tuzilishi va kvant o‘lchov effektlari bois turli sohalarda qo‘llanilmoqda. Jumladan, bu turdagi materiallar muqobil energiya ishlab chiqarishda, optoelektronikada yuqori intensivli lyuminessent va florosint materiallar olishda, yorug‘lik chiqaruvchi, fotodiodlar, lazerlar va fotodedektor qurilmalar ishlab chiqarishda, ekologik muammolarni hal etishda, gen muxandisligida genlarni ajratishda, biotibbiyotda biomarkerlar olish hamda dori vositalarini manzilli yetkazishda alohida ahamiyatga egaligi bilan dolzarbdir.

Jahonda hozirgi kunda yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan yangi turdagi yarimo‘tkazgichli CdS kvant nuqtalar sintezining samarali usullarini ishlab chiqilgan, ularning fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish borasida ilmiy natijalarga erishilgan. Bu borada, tarkibida CdS kvant nuqtalari tutgan nanozarrachalarni tuzilishi, hajmi, shakli va optik xossalarini boshqarish, ularning barqarorligini oshirishda turli stabilizatorlar tanlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Metallar xalkogenidlari asosidagi nanokristallar, xususan fotolyuminessensiya xossasiga ega bo‘lgan va yuqori fotokatalitik hamda kimyoviy barqarorlikni namoyon qiladigan CdS kvant nuqtalari atroflicha o‘rganilgan. Shu bilan bir qatorda CdS kvant nuqtalarning barqarorligi va fotokatalitik faolligini oshirish hamda gidrofil stabilizatorlar yordamida barqarorlashtirish muammolarini hal etish ilmiy jihatdan diqqatga sazovordir.

Respublikamizda ham CdS kvant nuqtalar va ularning turli xil stabilizatorlar bilan modifikatsiyalangan nanozarrachalarini olishning yangi usullarini ishlab chiqish hamda ularning fotokatalitik xarakteristikalarini tadqiq etish bo‘yicha muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida¹ «mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta‘minlash» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek bu borada 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo‘nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasini yangi bosqichga ko‘tarishda “Kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish.”² kabi vazifalar belgilangan. Shu bois, CdS kvant nuqtalar asosida fotokatalizatorlar sintezining zamonaviy usullarini yaratish, fotokatalitik xossalarini boshqarish, yadro sirtida

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasito‘g‘risida»gi Farmoni.

qobiqlarning hosil qilinishi, gidrofil stabilizatorlar bilan modifikatsiyalash bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF- 4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 29-avgustdagi PQ- 3246-sonli "Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-son "Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo'lgan mahsulot va xomashyo turlari bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi hamda 2021-yil noyabrdagi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishning VII «Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. CdS kvant nuqtalari (quantum dots) bo'yicha ilmiy izlanishlar so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Tadqiqotlar asosan ularning yuqori kvant samaradorligi, fotokatalitik faoliyat va barqarorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu sohada CdS kvant nuqtalari stabilizatorlar yordamida sintez qilinadi. Bu usullar kvant nuqtalarning fotokimyoviy xossalarni takomillashtirib, ularni organik ifloslantiruvchi moddalarni parchalaydigan hamda suvdan vodorod gazini olishda fotokatalizator sifatida foydalanishga imkon beradi. Shuningdek, ko'p tadqiqotlar bu materiallarning optik, elektron va fotokatalitik xossalarni o'rganishga qaratilgan.

CdS kvant nuqtalarning sintezi va fotokatalitik xossalari bo'yicha M. Bavendi, L. Bryus, A. Ekimov, P. Yang, Zh. Zhang, A. Samadi-Maybodi, J. Zhang, Zh. Xie, N. V. Hullavaradlar kabi olimlar nomlari bilan bog'liq. Bu borada K.Jain, S.Kishor, K. S.Singh, I.Josefesson, M.Odelius, L. M. Ramaniah, S.B. Brichkin, V.F. Razumov ham katta hissa qo'shdilar. Rossiyada D.O.Sagdeev, R.R. Shamilov, D.N. Chausov, V.V. Belyaev, Yu.G. Galyametdinov va boshqalarning xizmatlari salmoqli bo'lib, kvant nuqtalarni sintez qilish usullarini ishlab chiqish bilan bir qatorda yangi kompozit materiallarni yaratish, nanozarrachalarni boshqariladigan (nazorat qilinadigan) vositalar tizimiga kiritish kabi sohalarda ham ilmiy izlanishlar olib borishgan.

O'zbekistonda mazkur yo'nalish rivojiga hissa qo'shayotgan professorlar A. Sarimsakov, O.N. Ro'zimurodov, N.Q. Muxamadiev, Q.F. Xalilov va boshqalarni ta'kidlash mumkin. Kvant nuqtalar sintez usullarini o'rganish, fotokatalitik ko'rsatkichlarni tahlil qilish, turli qo'shimchalardan tozalash kabi muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni o'zbek olimlari ham olib borishmoqda.

Shunga qaramasdan yuqori fotolyuminessent va kvant unumli barqaror CdS kvant nuqtalar asosida fotokatalizatorlarni sintez qilish, ular sirtini gidrofil guruhli

stabilizatorlar bilan modifikatsiyalash hamda samarali sintez usullarini ishlab chiqish borasida etarlicha tadqiqotlar bajarilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasining "Tabiiy va sintetik materiallarni sintez qilish, tekshirish va qayta ishlashning yangi usullari" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli anion stabilizatorlari bilan barqarorlashtirilgan CdS kvant nuqtalari asosida fotokatalizatorlar sintezi, ularning barqarorligiga turli omillarning ta'sirini hamda fotokatalitik reaksiyaning borishini kinetik jihatdan baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tiol guruhi saqlagan stabilizatorlar ishtirokida CdS kvant nuqtalari sintezini kvant-kimyoviy jihatdan asoslash;

tiol guruhi saqlagan stabilizatorlar ishtirokida CdS kvant nuqtalarini kolloid muhitda sintez qilishga turli omillarning ta'sirini baholash;

sintez qilingan CdS kvant nuqtalarining optik-o'lcham xossalarini aniqlash;

CdS kvant nuqtalari ishtirokidagi fotokatalitik reaksiyalarning kinetik qonuniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti. Kadmiy asetat, natriy sulfid asosida olingan CdS kvant nuqtalari hamda tiol guruhi saqlagan merkaptolanol, merkaptosirka kislota, merkaptopropion kislota va L-sistein stabilizatorlar olingan.

Tadqiqotning predmeti. CdS kvant nuqtalarining turli tiol guruhi saqlovchi stabilizatorlar ishtirokida sintez qilinishi, ularning struktura-optik xossalari, o'lchamga bog'liq fotofizik tavsiflari, fotokatalitik faolligi hamda ushbu materiallar asosida boradigan fotokatalitik reaksiyalarning kinetik qonuniyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada spektrofotometriya, spektrofotometriya, IQ-spektroskopiya, X-ray rentgen diffraksiyasi (XRD), Energiya dispersiv rentgen spektroskopiyasi (EDS), transmission elektron mikroskopiya, kvant-kimyoviy, kinetik va statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tiol guruhi saqlagan stabilizatorlar ishtirokida CdS klasterlarining strukturaviy va elektron tabiati, barqarorligi, fotokatalitik samaradorligi kvant-kimyoviy jihatdan baholangan;

CdS kvant nuqtalar zarrachalarining barqarorligi va optik-o'lcham xossalariga eritma pH=12 ishqoriy muhitida, 85⁰C temperaturada hamda stabilizatorlar konsentratsiyasi 10⁻²÷10⁻³ mol/l, sintez davomiyligi 60÷90 daqiqa oralig'ida o'rganish asosida sintezning maqbul sharoitlari aniqlangan;

CdS kolloid kvant nuqtasi yadrosining shakllanishida gidrofil stabilizatorlarning ta'siri natijasida zarrachaning o'rtacha o'lchami 2,3 nm dan 10 nm gacha bo'lishi isbotlangan;

CdS kvant nuqtalarida stabilizator turiga qarab, yorug'lik nurini yutilish maksimumi 370÷480 nm, fotolyuminessensiya maksimumi 500÷650 nm, kvant unumi esa 20÷80% ekanligi aniqlangan;

CdS kvant nuqtalari ishtirokida organik bo'yoqlarning fotokatalitik parchalanish reaksiyalarining tezlik konstantalari hamda degradatsiya darajalari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

CdS kvant nuqtalari sintezini kvant-kimyoviy jihatdan baholashning metodikasi ishlab chiqilgan;

CdS kvant nuqtalarini sintez qilishning maqbul sharoitlari aniqlangan;

CdS asosidagi kvant nuqtalarini optik va fotokatalitik xossalarini tadqiq etish metodikasi ishlab chiqilgan;

CdS asosida olingan kvant nuqtalari fotokatalizator sifatida oqova suvlar tarkibidagi organik ifloslantiruvchilarni tozalashda qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan ilmiy natijalar va xulosalar zamonaviy spektrofotometriya, spektrofluorimetriya, IQ-spektroskopiya, X-ray rentgen diffraksiyasi (XRD), Energiya dispersiv rentgen spektroskopiyasi (EDS), transmission elektron mikroskopiya, kinetik, kvant-kimyoviy hisoblash usullariga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, CdS kvant nuqtalarini tiol guruhi saqlagan stabilizatorlar ishtirokida sintezning kvant-kimyoviy jihatdan asoslanishi, kolloid muhitda boradigan sintez jarayoniga turli omillarning ta'sirini kompleks o'rganilishi, sintez qilingan CdS kvant nuqtalarining optik va fotokatalitik xossalarini hamda ular ishtirokidagi reaksiyalarning kinetik qonuniyatlarini baholanganligi zamonaviy materiallar fizik-kimyosi va nanotexnologiya sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati CdS kvant nuqtalarini sintez qilish jarayonini kvant-kimyoviy jihatdan baholash metodikasi ishlab chiqilganligi va sintezning maqbul sharoitlarini aniqlanganligi, ularining optik va fotokatalitik xossalarini o'rganish bo'yicha samarali metodikaning yaratilganligi hamda fotokatalizator sifatida oqova suvlarni organik ifloslantiruvchilardan tozalashda muvaffaqiyatli qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Har xil turdagi anion stabilizatorlar bilan stabillashgan CdS kvant nuqtalarining sintezi va ularning fotokatalitik xossalarini o'rganish asosida:

L-sistein bilan stabillashgan CdS kvant nuqtalari fotokatalizator sifatida MCHJ "ATUSH MIHNAT TEXTILE" xorijiy korxonasi amaliyotga joriy etilgan ("ATUSH MIHNAT TEXTILE" xorijiy korxonasi 2025 yil 8 yanvardagi №08/01-01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada chiqindi suvlardagi organik moddalarni 99,95 % unum bilan fotokatalitik tozalash imkonini bergan;

merkaptosirka kislotasi bilan stabillashgan CdS kvant nuqtalari fotokatalizator sifatida MCHJ "ATUSH MIHNAT TEXTILE" xorijiy korxonasi amaliyotga joriy etilgan (MCHJ "ATUSH MIHNAT TEXTILE" xorijiy korxonasi 2025 yil 8 yanvardagi 08/01-02-sonli ma'lumotnomasi). Natijada chiqindi suvlarni organik moddalardan 60 daqiqada 85,44 % unum bilan fotokatalitik tozalash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 25 ta, jumladan, 10 ta xalqaro va 15 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 6 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola respublikada, 2 ta maqola xorijiy jurnallarda jumladan 1 ta maqola scopus bazasida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etib, 75 ta rasm va 8 ta jadvallardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**CdS kvant nuqtalari va fotokatalizning umumiy xossalari**" deb nomlangan I bobida turli xil anion saqlagan stabilizatorlar barqarorlashtirilgan CdS kvant nuqtalarni kolloid suvli usulda olish, organik erituvchilarda olish, CdS kvant nuqtalarni olish, gidrofob stabilizatorlarni gidrofil stabilizatorlarga almashtirish usulda olish, fotokatalizatorning tezlik kinetikasi va mexanizmiga doir ilmiy ma'lumotlar tahlil etilgan. Suvning parchalanishi uchun samarali fotokatalizatorlar sintez qilish va reaksiya mexanizmi hamda kinetikasini to'liq o'rganish dolzarb muammolardan biri ekanligi asoslangan.

Dissertatsiyaning II bobi "**Tadqiqot obyektlari va usullari**"ga bag'ishlangan bo'lib, unda har xil anion saqlagan stabilizatorlar bilan barqarorlashtirilgan CdS kvant nuqtalari asosida fotokatalizatorlar sintezi uchun zurrur bo'lgan reagentlarning xarakteristikalarini va sintez metodikalarini hamda tadqiqot usullari keltirilgan. Fotokatalizatorlar sirti va ularning g'ovaklik darajalarini tadqiq etish usullari sifatida rentgen difraktometriya (XRD), skanerlovchi elektron mikroskopiya, mikrorentgen tahlil, kimyoviy va fizik-kimyoviy tadqiqot usullari, yutilish spektrlari, fotolyuminesensiya spektrlarini o'rganish hamda nazariy hisob kitoblarni amalga oshirish uchun ba'zi statistik usullar haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Dissertatsiyaning III bobi "**CdS kvant nuqtalarini kvant-kimyoviy baholash**"ga bag'ishlangan bo'lib, $(\text{CdS})_n$ ($n=3\div 27$) nanoklasterlarining barqaror strukturasi bo'yicha kvant kimyoviy hisoblashlar amalga oshirildi.

Klasterlarda atomlar sonining ortishi bilan ularning barqarorligi ortib borishini yana bir bor tasdiqlaydi. $(\text{CdS})_n$ ($n=5, 10, 15, 20$) nanoklasterlarning kvant kimyoviy tahlili shuni ko'rsatadiki, strukturaviy va elektron xossalari klaster hajmiga qarab sezilarli darajada farqlanadi.

(CdS)_n (n=5, 10, 15, 20) klasterlarning optimallashtirilgan geometrik strukturalari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. (CdS)_n (n=5, 10, 15, 20) klasterlar strukturalari

Shuningdek, (DFT) B3LYP/6-31G** asosida hisoblashlardan olingan klasterlarning barqaror strukturali izomerlarining turli geometrik parametrlari: bog‘lar uzunligi, dipol momenti, klasterlarning umumiy energiyasi kabi eng muhim fizik parametrlari qiymatlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

(CdS)_n (n = 5 ÷ 20) klasterlarining ba’zi fizik-kimyoviy parametrlari

(CdS) _n	Umumiy energiya <i>E</i> , (kkal/mol)	Cd-S bog‘ uzunligi (Å°)	Elektrofillik indeksi (eV)	Dipol momenti (Debye)
5	1580,0215	2,36	3,45	1,35
10	5502,1022	2,38	3,78	4,72
15	8950,2053	2,24	4,13	5,16
20	11033,056	2,18	4,18	5,41

Reaksiya jarayonida Cd atomlari klasterning ichida, S atomlari esa tashqariga chiqishga harakat qiladi, Def2SVP – DFT va ab initio hisob-kitoblari uchun ishlatiladigan baza to‘plami, u CdS kvant nuqtalarining elektron tuzilishini va spektral xossalarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi (2-jadval).

2-jadval

(CdS)_n (n=3÷27) kondensatsiyalangan klasterlarning HOMO-LUMO sohalari orasidagi energiya farqlari


Strukturasi	H-L (eV) LANL2DZ	H-L (eV) Def2TZVPP	H-L (eV) Def2SVP
(CdS) ₅	3,18	3, 27	3,85
(CdS) ₁₀	2,92	2,97	3,55
(CdS) ₁₅	2,94	2,55	3,54
(CdS) ₂₀	2,87	2,86	3,45

Def2TZVPP – aniqroq va kengaytirilgan baza to‘plami bo‘lib, ayniqsa CdS kvant nuqtalari va boshqa yarim o‘tkazgich materiallar uchun eng yaxshi tanlovlardan biri hisoblanadi.

(CdS)_n (n = 3 ÷ 27) klasterlari qatorida atomlar soni ortib borishi bilan HOMO va LUMO energiyalari farqi, ya’ni klasterlarda taqiqlangan hudud o‘lchami kamayishi hisoblab topildi. Bu esa (CdS)₅ klasteriga nisbatan (CdS)₂₀ klasteri yuqori

fotokatalitik faollikni nomoyon qilishini anglatadi.

$(\text{CdS})_n$ ($n = 3 \div 27$) klasterlari uchun elektron holatlar HUMO va LUMO orbital energiyalari 2-rasmda keltirilgan.





2-rasm. $(\text{CdS})_n$ klasterlarida LUMO hamda HUMO MO larining B3LYP/DZVP2 dasturi bo'yicha hisoblangan qiymatlari

Dissertatsiyaning “**Tiol guruhli stabilizatorlar bilan barqarorlashtirilgan CdS kvant nuqtalarining fotokatalitik faolligi**” deb nomlangan IV bobida har xil anion stabilizatorlar bilan stabillashgan CdS kvant nuqtalari asosida fotokatalizatorlar sintezi, ularning stabilizator turlariga, moddalar konsentratsiyasiga, eritma muhitiga (pH), haroratga, vaqtga, geometrik, sorbsion va katalitik kabi xarakteristikalariga bog'liqligini aniqlash hamda reaksiya borishini kinetik jihatdan baholashdan iborat.



Sintez qilingan CdS kolloid KNlar turli gidrofil stabilizatorlar bilan II bobda keltirilgan usullar bilan qoplandi. Bunda organik birikmalar qoplovchilar sifatida qo'llanildi.

Turli xil anion guruhi saqlagan gidrofil stabilizator sifatida qo'llanilib, azot atmosferasida ishqoriy muhitida yuqori 20-100 °C -haroratda CdS KN lari sintez qilindi. Olingan CdS nanozarrachalarning lyuminessensiyasi spektrida nisbiy intensivlik diapazoni 460-600 nm to'liq uzunligiga to'g'ri keldi (3-rasm). CdS KN lar lyuminessensiya spektrning intensivlik diapazoni tor va simmetrik bo'lib, kolloid kvant nuqta nanokristallarida sirt defektlarining juda kamligidan dalolat bermoqda. 3-rasmdan ko'rinadiki CdS kvant nuqtalarining fotolyuminessensiya intensivligining maksimumi 540 nm diapazonda to'g'ri kelmoqda. Sintez qilingan CdS nanokristallarining kvant unumi kumarin usulida, rodamin 6G (96%li) hamda metil ko'ki indikatorining etanoldagi eritmasi qo'llanilib, aniqlandi. Jarayon uchun kvant unumining qiymati 23 % ni tashkil etdi. Jarayon davomida CdS KNlarning yutilish spektrlari ham olindi. Spektrda eksiton cho'qqisi 370 nm to'liq uzunligiga to'g'ri keldi (3-rasm). Ta'kidlash joizki, yutilish va lyuminessensiya spektrlari cho'qqilarining maksimum to'liq uzunliklari har xil qiymatga ega bo'ldi, ya'ni $\lambda = 370$ nm.




3-rasm. CdS KN larining yutilish va lyuminessensiya spektrlarii

Hisoblashlarga ko'ra CdS KN yadrosining o'lchami 5,49 nm tashkil etdi. CdS kvant nuqtalar zarrachalari o'rtacha gidrodinamik o'lchamining taqsimlanish gistogrammasi "Malvern Zetasizer Nano" hamda "Photocor complex" analizatorlarida aniqlandi. CdS zarralarining asosiy qismi o'rtacha 4-6 nanometr oralig'ida ekanligi ko'rinib turibdi. Eng baland nuqta taxminan o'rtacha 5,7 nm yaqinida joylashgan bo'lib, bu o'lchamdagi zarrachalarning eng yuqori chastotaga ega ekanligini 4-rasmda ko'rsatadi.




4-rasm. CdS KNlarning o'rtacha gidrodinamik o'lcham taqsimoti

Olingan CdS kvant nuqtalarining o'rtacha gidrodinamik o'lchami, stabilizator qobig'i stabilizatorlar bilan hisobga olganda, 5,4-7,9 nm ni tashkil mumkinligini aytish mumkin. Tadqiqotlar davomida rentgen diffraksiyasi usuli yordamida CdS kvant nuqtalarining CdS ning barcha namunalarning kristall strukturasi kubik ekanligi aniqlandi. Ko'zga ko'ringan cho'qqilar (111), (220) va (311) kubik tuzilishga indekslangan. CdS KN 10° dan 60° gacha bo'lgan 2θ oralig'ida diffraksion tepaliklar kuzatildi. Olingan analiz natijalarini JCPDS card (80-0019), (JCPDS (05-0566) va (80-0019) bazasiga solishtirildi. Bu diffraksion tepaliklar sintez qilingan materialning kristallografik ma'lumotlariga mos keladi (5-rasm).



5-rasm. CdS kvant nuqtasining rentgen difraktogrammasi

CdS zarrachalari kichik o'lchamlarga ega bo'lib, taxminan 3-6 nm diametrga ega ekanligini 6-rasmda ko'rish mumkin. MAA ning yuqori darajadagi stabilizatsiya xossasi CdS KN kukunida zarrachalar o'rtasida mahkam bog'lanish hosil qilmasdan, ularning bir xil tarqalishini sezilarli darajada yaxshilaydi. TEM bilan tekshirilganda, CdS zarrachalarining aniq chegara chiziqlari ko'zga yaqqol tashlanadi. Zarrachalarning bir xil o'lchamda shakllanishi olingan namuna monodispersligini ko'rsatadi. CdS kvant nuqtalarining o'lchamli taqsimoti va shaklini aniqlash transmission elektron mikroskopda (TEM) bajarildi (6-rasm).



6-rasm. CdS KN larining (a) 10 nm va (b) 25 nm o'lchamdagi TEM tasvirlari

CdS kvant nuqtalari sintez qilingandan so'ng, L-sistein yopishtiruvchi vosita sifatida kiritiladi. L-sistein - oltingugurtni o'z ichiga olgan aminokislota bo'lib, u CdS kvant nuqta yuzasi bilan muvofiqlasha oladi, barqarorlikni ta'minlaydi va ularning agregatsiyasini oldini oladi. L-sistein tarkibidagi tiol (-SH) guruhi CdS yuzasi bilan o'zaro ta'sir qilib, passivlashtiruvchi qatlam hosil qiladi. Ushbu sirt modifikatsiyasi kvant nuqtalarining turli erituvchilarda tarqalishini kuchaytiradi va ularning biologik mosligini yaxshilaydi.


CdS kvant nuqtalarning elementar tarkibi 3-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinadiki Na ioni ishqoriy muhitni hosil qilib eritmada qolganligi ko‘rish mumkin. Ushbu jadval asosida CdS kvant nuqtalarning EDX spektri olingan. CdS kvant nuqtalarning elementar konformatsiyasi energiya dispersiv rentgen spektroskopiyasi (EDS) yordamida kuzatildi. Kadmiy, oltingugurtlarni o‘z ichiga olgan CdS KNLarning EDX spektrini ko‘rsatadi (7-rasm).

3-jadval

CdS kvant nuqta namunalarning kimyoviy elementar tarkibi


Element nomi	Elementning mass fraksiyasi (%)	Statistik xatolik	Quyida aniqlash chegarasi	Rentgen nurlanishi intensivligi (cps/ μ A)
Na	ND	-	-	-
S	57,69	0,0362	0,0056	156,31065
Zn	0,0058	0,0003	0,0005	0,042912
Cd	42, 3	0,0054	0,0005	130,89622

Spectrum




7-rasm. CdS kvant nuqtaning elementar tahlili

Stabilizatorlar asosan organik moddalardan tashkil topganligi uchun 8 rasmda ularning IR spektridan ko‘rish mumkin. Quyidagi spektrda 3261 cm^{-1} , 2922 cm^{-1} , 1637 cm^{-1} , 1544 cm^{-1} , 1070 cm^{-1} , 1012 cm^{-1} , $630\text{--}690\text{ cm}^{-1}$ sohalarida sezilarli darajada nur yutish signallari hosil bo‘lgan. Unga ko‘ra 3261 cm^{-1} va 1637 cm^{-1} sohalar $-\text{NH}_2$ va $-\text{NH}$ guruhga tegishli. Shuningdek, stabilizator sifatida foydanilgan saponinlar tarkibida $3200\text{--}3600\text{ cm}^{-1}$ soha $-\text{OH}$, $-\text{CH}_3$ guruhi 2960 va 2870 , $-\text{COOH}$ $1800\text{--}1740\text{ cm}^{-1}$, $-\text{CH}$ (alkan) $2850\text{--}2960\text{ cm}^{-1}$, $\text{C}=\text{O}$ (karbonil) $1700\text{--}1750\text{ cm}^{-1}$, $\text{C}-\text{O}$ (efirlar, spirtlar) $1050\text{--}1150\text{ cm}^{-1}$ ga ham tegishli bo‘lib, birikma tarkibida shu guruhlar mavjud ekanligi to‘g‘risida xulosa qilish mumkin (8 b-rasm).



a)



b)


8-rasm. L-sistein (a) va merkaptosirka kislota(b) bilan barqarorlashtirilgan CdS kvant nuqtalarining IQ spektrlari

Stabilizator konsentratsiyasini tanlash. Optimal konsentratsiyani tanlash CdS kvant nuqtalarining fotoluminescent samaradorligini oshiradi, fotokatalitik xossalarini yaxshilaydi va zarrachalarning bir xilligi va barqarorligini ta'minlaydi. Sintez sharoitlariga qarab, har bir stabilizator uchun o'ziga xos optimal konsentratsiya mavjud, va bu konsentratsiya sintez jarayonini modifikatsiyalash va optimallashtirish uchun muhim rol o'ynaydi.

Stabilizatorlarning optimal konsentratsiyalari CdS kvant nuqtalarning turli fotokatalitik, optik va elektr xossalarini takomillashtirishga imkon beradi. Shu sababli, sintez jarayonlarida stabilizator konsentratsiyasini nazorat qilish CdS kvant nuqtalarning sifatli sintezini ta'minlash uchun zarurdir (9 a-rasm).

CdS kvant nuqtalarning sintez jarayonida harorat muhim rol o'ynaydi. Haroratning o'zgarishi CdS kvant nuqtalarning hosil bo'lish tezligi, o'lchami, dispersiyasi, va optik xossalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori harorat CdS kvant nuqtalarning kristallanish tezligini oshiradi va zarrachaning tezroq hosil bo'lishiga olib keladi. Yuqori haroratda Cd va S ionlarning tezroq birikishini, zarrachalarning tez o'sishini va yirik o'lchamdagi kvant nuqtalarning hosil bo'lishi kuzatiladi. Yirik zarrachalarning hosil bo'lishi fotoluminesensiya spektrining qizil tomonga siljishini ya'ni uzunroq to'lqin uzunligi tomon siljiydi.

Yuqori haroratda zarrachalarning o'lchamining bir xilligi pasayadi. Chunki yuqori haroratda zarrachalar tez o'sishi natijasida o'shish tezligini tartibga solish qiyin bo'ladi. Past harorat CdS kvant nuqtalarining yuzasidagi defektlar sonini kamaytirishga yordam beradi, natijada kvant nuqtalarning fotoluminescent intensivligi oshadi. Past haroratda Cd va S ionlarning harakati sekinlashadi va natijada kichik o'lchamdagi kvant nuqtalar hosil bo'ldi. Yutilish spektrlari ko'k tomonga siljiydi. CdS kvant nuqtalarini sintez qilish uchun optimal haroratni tanlash zarrachalar hajmining bir xilligini, fotoluminesensiya samaradorligini va kolloid barqarorlikni ta'minlaydi (9 b-rasm).



9-rasm. CdS kvant nuqtalari yutilish spektrining stabilizator konsentratsiyasiga (a) va haroratga (b) bog'liqligi

Turli xil anion guruhi saqlagan stabilizatorlar bilan qoplangan CdS kvant nuqtalarning yutilish, lyuminessensiya spektrlari hamda o'rtacha gidrodinamik diametrlari keltirilgan (4-jadval). Jadvaldagi keltirilgan stabilizatorlar CdS kvant nuqtalari yuzasini barqarorlashtirish, dispersiyani yaxshilash, aglomeratsiyadan saqlash va fotokatalitik xossalarini oshiradi. Kvant nuqtalarning o'rtacha gidrodinamik diametri (nm) stabilizator va sintez usuliga bog'liq. Taqiqlangan hudud energiyasini elektron-voltlarda (eV) ifodalanishi uchun quyidagi formula ishlatiladi: $E_g(eV) = \frac{1240}{\lambda(nm)}$

4-jadval


O'rganilayotgan CdS kvant nuqtalarining o'rtacha gidrodinamik o'lchami, yutilish va lyuminessensiya spektrlari

Stabilizatorlar	$\lambda_{yutilish}, nm$	λ_{lyum}, nm	D, nm	Taqiqlangan hudud energiyasi (E_g) eV
Merkaptoetanol	371	535	2,55	3,34
Merkaptosirka kislota	436	665	4,69	2,84
Merkaptopropion kislota	404	575	3,51	3,07
L-sistein	386	545	2,95	3,21

Ilmiy ishda 4 turdagi stabilizatorlar - merkaptosirka kislota, merkaptopropion kislota, merkaptoetanol va L sistein bilan qoplangan kvant nuqtalarning fotokatalitik xossalari o'rganildi. Bu stabilizatorlarning barchasi tiol tipidagi bo'lib, xalkogenid nanozarrachalariga -SH guruhi tomonidan biriktirilgan.

Biroq, bu moddalarning adsorbsion xossalari farqlanadi, bu stabilizatorlar va reaktivlarning ekvimolyar nisbati bilan turli o'lchamdagi nanozarrachalar hosil bo'lishiga olib keladi, bu esa tarmoqli bo'shliqning yutilish cho'qqilari holatida aks etadi (10 a -rasm). Grafik CdS kvant nuqtalarining stabilizator turiga qarab yutilish spektrlaridagi o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. Stabilizatorlar turlarining yutilish spektrlari turlicha bo'lib, bu ularning kvant nuqtalari bilan turli xil bog'lanish xususiyatlariga ega ekanligini ko'rsatadi. Merkaptopropion va L-sistein

stabilizatorlari CdS kvant nuqtalari yutilish spektrida nisbatan kuchli barqarorlik va kengroq yutilish spektrini ta'minlaydi. Stabilizator turi nanozarrachalarning lyuminessensiya spektrlarining holatiga ham ta'sir qiladi. Kvant nuqtalari kristall panjarasidagi sirt nuqsonlari bo'lgan kristallarga xos bo'lgan keng lyuminessensiya diapazonlariga ega (10 b-rasm), bu suvli muhitda sintez qilingan nanozarralar uchun xosdir. Lyuminessensiya spektri holatiga stabilizator tabiatining ta'sirini o'rganish maqsadida ularning olingan turli stabilizatorlardagi spektrlari qiyosiy o'rganildi. Merkaptotanol bilan qoplangan CdS nanopartikullarining afzalliklari yuqori fotokatalitik faollik, barqarorlik, sintez qulayligi va moslashtirilgan sirt xossalarini o'z ichiga oladi. Merkaptotanol bilan qoplangan CdS nanopartikulining lyuminessensiya spektrining to'lqin uzunligi hududi 535 nm edi. Bu tiol guruhining qolgan qismi tomonidan saqlanadigan stabilizatorlarga nisbatan ko'rinadigan yorug'lik hududiga to'g'ri keladi.




10-rasm. Turli stabilizatorlar bilan barqarorlashtirilgan CdS kvant nuqtalarining yutilish (a) va lyuminessensiya (b) spektrlari

Bundan tashqari, 10-rasmdan ko'rinib turibdiki, merkaptotanolning intensivligi boshqa tiol guruhlarini o'z ichiga olgan stabilizatorlarga qaraganda yaxshiroq. Ko'rinadigan yorug'lik maydoni taxminan 555 nm to'lqin uzunligida markazlashtirilgan, bu sariq-yashil rangga mos keladi. Bu rangning yorug'ligiga ko'zning sezgirligi eng yuqori. Merkaptosirka kislota bilan qoplangan CdS nanozarrachalari ko'rinadigan yorug'lik mintaqasining markazidan ancha kattaroq maydonda joylashgan.


Turli stabilizatorlar bilan stabillashgan CdS kvant nuqtalarining fotokatalitik xossalari. Fotokimyoviy reaksiyalarning tezlik konstantalarini aniqlash uchun turli tajriba usullaridan foydalanish mumkin. Masalan, spektrofotometriya, lyuminessensiya spektroskopiya usullari vaqt o'tishi bilan reaksiyaning borishini kuzatish va reaksiya tezligining o'zgarishini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, eksperimental natijalar asosida tezlik konstantasini hisoblash mumkin. Fotokatalitik kimyoviy reaksiyalarning tezlik konstantasi - bu fotokatalizatorning (odatda yarim o'tkazgich materiali) faolligini va reaktivlarning konsentratsiyasini o'z ichiga olgan atama.

Fotokatalitik reaksiyalarning tezlik konstantasini odatda Arrenius tenglamasi, birinchi tartibli reaksiyaning kinetik tenglamasi hamda analitik usulda ifodalash mumkin. Ushbu tenglamalar harorat yoki konsentratsiya kabi o'zgaruvchilarga qarab reaksiya tezligi qanday o'zgarishini ko'rsatadi. Eksperimental ma'lumotlardan foydalanib, reaksiya tezligining ushbu o'zgarishlarini tahlil qilib, tezlik konstantasini hisoblashingiz mumkin. Eksperimental ma'lumotlarga ko'ra, merkaptotanol bilan barqarorlashtirilgan kvant nuqtalari, spektrning ko'rinadigan hududida past yutilish intensivligiga qaramay, ksenon chiroq bilan nurlanganda eng katta fotokatalitik faollikni namoyish etadi. Tiokarboksilik kislotalar bilan qoplangan kvant nuqtalar yordamida reaksiyalar, aksincha, ancha sekinroq, lekin ayni paytda birinchi tartibda boradi. Fotokatalitik parchalanish reaksiyalarining kinetik egri chiziqlari 11-rasmda keltirilgan.



11-rasm. CdS KN lari ishtirokida Rodamin B ning parchalanish reaksiyasining kinetik egri chiziqlari

Rodamin B ning parchalanishi CdS KN tomonidan yorug'lik yutilgandan so'ng boshlangan quyidagi fotokimyoviy reaksiyalar sodir bo'ladi. CdS KN yorug'lik nuri (UB yoki ko'rinadigan) ta'sirida qo'zg'aladi. Fotokatalizning boshlang'ich bosqichi. CdS kvant nuqtalarida hosil bo'lgan elektron va teshiklar reaktiv kislorod turlarini hosil qilishga olib keladi (12-rasm).



12-rasm. CdS kvant nuqtalarining fotokatalitik ta'sir mexanizmi

Rodamin B ning fotoparchalanishi reaksiyalarining yuqori tezligi, merkaptopetanol bilan qoplangan kvant nuqtalaridan foydalanilganda, bu nanozarrachalarning kichikroq o'lchamlari tufayli yuzaning kattaroq solishtirma maydoniga ega bo'lishi va ularning yuzasi kamroq nuqsonli ekanligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin (5-jadval).

5-jadval

Rodamin B ning parchalanish tezligi konstantalari

Stabilizatorlar	k, min ⁻¹	t _{1/2}	Degradatsiya darajasi (%)
Merkaptoetanol	0,14601	4,75	99,98%
Merkaptosirka kislota	0,03203	21,64	85,44%
Merkaptopropion kislota	0,06421	16,8	97,89%
L-sistein	0,12581	5,5	99,95%

CdS kvant nuqtalarning fotokatalitik xossalari ko‘rinadigan yorug‘lik nur sohasining nurlanish ta‘sirida (to‘lqin uzunligi 450-550 nm cho‘qqi bilan) suvli eritmada rodamin B parchalanishining namunaviy reaksiyasi yordamida o‘rganildi. Bu jarayon 13-rasmda olingan namunalarda kuzatildi.



13-rasm. CdS kvant nuqta fotokatalizatori ta‘sirida rodamin B rangining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi

Rodamin B molekularining degradatsiyasi kvant nuqtalar tomonidan qo‘zg‘atilgan OH⁻ radikallari bilan aloqa qilish natijasida sodir bo‘ladi.

XULOSALAR

1. CdS kolloid kvant nuqtalari sintezining maqbul sharoitlari qayd etildi hamda ularning fotokatalitik parametrlari o‘rnatildi. Sintezning optimal sharoitlarida KKNlarning optik va tekstur xarakteristikalari aniqlandi.

2. CdS kvant nuqtalarning gidrofil stabilizatorlar bilan barqarorlashtirilishi natijasida KKNlarning suvli muhitda eruvchanligi va barqarorligining oshishi, fotokatalitik xossalari ta‘siri hamda monodispers nanozarrachalar hosil bo‘lganligi qayd etildi.

3. CdS kvant nuqtalarni kvant unumi va fotokatalitik faolligi gidrofil guruhli stabilizatorlar tabiatiga bog‘liqligi qayd etildi. Merkaptosirka kislota bilan stabillashgan CdS kvant nuqtalar asosida olingan fotokatalizatorni ishlab chiqarish chiqindi suvlarini sintetik bo‘yoqlardan tozalash texnologiyasida kvant unumi 70 % dan L-sistein bilan stabillashgan CdS kvant nuqtalarida esa kvant unumi 75 % oshganligi qayd etildi.

4. CdS kolloid kvant nuqta yadrosining shakllanishida gidrofil stabilizatorlarning ta‘siri natijasida o‘rtacha o‘lchami 2,3 nm dan to 10 nm gacha va monodispers nanozarrachalar olinganligi va CdS kvant nuqtalarining barqarorligi va fotoaktivligi stabilizator turiga bog‘liqligi qayd etildi. Ularda lyuminessensiya intensivligi hamda fluoressensiya xossalari sezilarli darajada oshganligi kuzatildi.

5. Har xil turdagi anion stabilizatorlar bilan stabillashgan CdS kvant nuqtalar asosida olingan fotokatalizator kolloid eritma usuli bo‘yicha sintez qilingan bo‘lib,

uning o'lchami odatda 8,0 nm ga teng. Uning sorbtion sig'im 45 m²/g ga teng bo'lib, sirt yuzasi 25–250 m²/g, kvant unumi 80% ga, taqiqlangan hudud kengligi 2,56 eV ga, yutilish spektrlari 415 nm ga, lyuminessensiya spektri 525 nm ga teng. CdS kvant nuqtalarini organik bo'yoqlar uchun yaxshi fotokatalizator sifatida ishlatish imkonining borligi qayd etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РnD.03/30.12.2019.К.02.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ Ш. РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

ЗУФАРОВ АСЛИДДИН МИРЗАБАЕВИЧ

**СИНТЕЗ КВАНТОВЫХ ТОЧЕК CdS, СТАБИЛИЗИРОВАННЫХ
РАЗЛИЧНЫМИ АНИОННЫМИ СТАБИЛИЗАТОРАМИ, И
ИЗУЧЕНИЕ ИХ ФОТОКАТАЛИТИЧЕСКИХ СВОЙСТВ**

02.00.04 – Физическая химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (РnD) ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.2. PhD/K763.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете имени Ш.Рашидова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Ученого совета по адресу www.samdu.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Мухамадиев Нурали Курбоналиевич
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты: Бекчанов Даврон Жумазарович
доктор химических наук, профессор
Халилов Кадриддин Фахриддинович
кандидат химических наук, профессор

Ведущая организация: Институт химии и физики полимеров Академии наук Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «29» май 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.K.02.05 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. По адресу: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15, Института Биохимии, Химический корпус, 220 кабинет. Тел.: (99866)239-11-40; Факс: (99866) 239-11-40. E-mail: devonxon@samdu.uz.

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрировано за № 42 Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар дом 15, ИРЦ. (Фундаментальная библиотека CaMГУ) Тел.: (99866)239-11-51.

Автореферат диссертации разослан «19» май 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 2 от «19» май 2025 г).



А.М.Насимов
Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

Ж.Р.Узоков
Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, PhD

О.Н.Рузимурадов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире последние два десятилетия с развитием современных нанотехнологий и квантовой механики возрастает интерес к синтезу полупроводниковых квантовых точек. Среди квантовых точек особое значение имеют квантовые точки CdS и наноматериалы на их основе, которые используются в различных областях благодаря своей уникальной структуре и эффектам квантового измерения. В частности, материалы этого типа актуальны в связи с их особой значимостью в производстве альтернативной энергетики, производстве высокоинтенсивных люминесцентных и флуоресцентных материалов в оптоэлектронике, производстве светоизлучающих устройств, фотодиодов, лазеров и фотодетекторов, решении экологических проблем, геной инженерии, разделении генов, получении биомаркеров в биомедицине, адресной доставке лекарств.

В мире настоящее время ведущими научно-исследовательскими центрами мира разработаны эффективные методы синтеза новых типов полупроводниковых квантовых точек CdS, достигнуты научные результаты в изучении их физико-химических свойств. В связи с этим проводятся исследования по управлению структурой, размерами, формой и оптическими свойствами наночастиц, содержащих квантовые точки CdS, подбору различных стабилизаторов для повышения их стабильности. Детально изучены нанокристаллы на основе халькогенидов металлов, в частности квантовые точки CdS, обладающие фотолюминесцентными свойствами и проявляющие высокую фотокаталитическую и химическую стабильность. При этом научный интерес представляет решение задач повышения стабильности и фотокаталитической активности квантовых точек CdS, а также их стабилизации гидрофильными стабилизаторами.

В нашей республике достигнуты определенные научные результаты по разработке новых методов получения квантовых точек CdS и их наночастиц, модифицированных различными стабилизаторами, а также по исследованию их фотокаталитических характеристик. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан³ определены важные задачи «производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки местных сырьевых ресурсов, освоения принципиально новых видов продукции и технологий и на этой основе обеспечения конкурентоспособности национальных товаров на внутреннем и внешнем рынках». Также в этой связи, в соответствии с семью приоритетами стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, поднятие уровня медицинского обслуживания населения на новый уровень «Развитие химической и газохимической промышленности и повышение уровня переработки природного газа с 8% до 20%». такие задачи определены. Поэтому большое значение имеют исследования по созданию современных

³ Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»

методов синтеза фотокатализаторов на основе квантовых точек CdS, управлению фотокаталитическими свойствами, формированию оболочек на поверхности ядра, модификации гидрофильными стабилизаторами.

Указы Президента Республики Узбекистан №ПФ4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № ПК-3246 от 29 августа 2017 года «О мерах по совершенствованию экспортно-импортной деятельности» организаций химической промышленности», ПК-3479 от 17 января 2018 года «О мерах по обеспечению отраслей экономики страны продукцией и сырьем, пользующимися повышенным спросом» и ПК-4265 от 3 апреля 2019 года «Дальнейшее реформирование химической промышленности». «Результаты данного диссертационного исследования служат в определенной степени реализации задач, определенных в решениях от ноября 2021 года, и мерах по повышению его инвестиционной привлекательности.

Соответствие исследования приоритетных направлений развития науки и технологии в республике. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с VII приоритетным направлением развития науки и техники республики «Химия, химическая технология и нанотехнологии».

Уровень изученности проблемы. Научные исследования квантовых точек CdS значительно развились в последние годы. Исследования в основном сосредоточены на улучшении их высокой квантовой эффективности, фотокаталитической активности и стабильности. В этой области квантовые точки CdS синтезируются с использованием стабилизаторов. Эти методы улучшают фотохимические свойства квантовых точек, позволяя использовать их в качестве фотокатализаторов для разложения органических загрязнителей и получения водорода из воды. Кроме того, многие исследования сосредоточены на изучении оптических, электронных и фотокаталитических свойств этих материалов.

